



## SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA ATOV GAPLAR

**Normamatova Rayxona**

*SamDU 4-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: prof. Mirzayev I.K.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek yozuvchisi Shukur Xolmirzayev hikoyalari to'plamlari asosida atov gaplarning mazmuni ochib berilgan. Atov gaplarning hikoyalarda keltirilgan ma'nolari ilmiy va nazariy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** atov gaplar, hikoya, nasr, tahlil, satr, mohiyat.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarining shakllanish davri 60- yillarni tashkil qiladi. Bu vaqt bejizga emas adibning bolalik yillari ko'proq tabiat qo'ynida o'tganligi sababli ushbu mavzu shoirning ko'ngliga yaqin. Ushbu yilda yaratilgan hikoyalarida yozuvchi inson va hayvonot olamining, inson va o'simliklar dunyosining uzviy aloqadorligini, bulardan birining ayro emasligini hammasi bir-biriga chambarchas bog'liqligini, tabiat insonni tarbiya qilishidagi mohiyatni namoyon qiladi va bu bilan yozuvchi o'z ko'zlagan maqsadiga erishadi. Badiiy asarlarda juda ko'p o'rinlarda atov gaplarni uchratamiz. Asarlarda atov gaplarni o'z vazifasida qo'llash yozuvchidan so'z mahoratini talab etadi. Mana shunday murakkab so'z mahoratiga ega ijodkorlardan biri Shukur Xolmirzayev hisoblanadi. "Atov gap - egasiz gapning o'ziga xos turi: Keng sahro. Quruq cho'l. Suv manbalaridan darak yo'q. Biroq gaplarni zamonlar bo'yicha paradigmaga solsak, quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi: Keng sahro – Keng sahro edi.

Demak, atov gap – hozirgi zamon ko'rinishidagi kesimdan iborat egasiz gap:

1. Navbahor, ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar.( Muq).
2. Hamon yodimdadir, gul chog'i erdi.(Uyg', I. Sulton.) .

Quyidagi misollar orqali adib hikoyalarida keltirilgan atov gaplar bilan tanishib chiqamiz.

Tushib ketyapman, ketyapman. Tinchlik. Bahor avjida. Yana bulbullar sayrab yotishibdi. ("Yashil Niva"). [2, 43]

Tinchlik. Bahor avjida atov gapning sodda va kengaygan shakllari mavjud. Ushbu gapning bahor faslining tinchlik-osityshalikda, to'kin sochinlikda o'tayotganligi ifodalangan. Vilnyusga ketishda yo'lda imoratlari toshdan yasalgan kichkina bir qishloq bor, undan o'tgach kabob pishiriladigan kafe keladi. Asar qahramoni Vilnyusga talabalar ma'ruza o'qishga ketish jarayoni tasvirlangan.

Nishab yo'l. Anchagina tezlik bilan tushib ketyapman. Lekin butun vujudim ko'z-quloq: tag'in bir burilishda chiqib qolsa, bilasizlar-ku unday odam yeb turgan taomiga ham tupuradi. ("Yashil Niva") [2, 43]

Nishab yo'l ushbu gapda atov gapning kengaygan shakli qo'llangan. Nishab yo'l (pastlik, qiyalik yo'l)dan asar qahramoni ma'ruza o'qishga ketayotganida "Diktator drektor" yo'limdan chiqmasin deya iltijo bilan ketadi. O'tgan safar xotini, o'g'li va qizini



davonga olib chiqqanidan diktatorning mashinasidan o'tib ketaolmay xunob bo'lganini eslaydi.

Bizda paxta ekilmaydida. Tog'lik. ("Xumor"). [2, 51]

Tog'lik ushbu satrda atov gapning soda turi qatnashgan. Oltinchi sinf bolasi paxta terishga orzumand ekanligi lekin tog'likda paxta ekilmasligiva paxta o'zbek xalqining boyligi, g'ururi ekanligi tasvirlangan.

Yoz edi. Pishiqchilik. Har qanday shafqatsiz ovchi ham bunday paytda toqqa chiqib endi jo'jasini uchirma qilayotgan kaklikka yoki bolalari mushtdek bo'lgan quyonga o'q uzmaydi; ularning ham tirik jon, zurriyot qoldirishga huquqli ekanini his etishni bunga sabab, balki ne bir sirli tuyg'u ularning ham inson qavmiga yaqin ekanini sezdiradimi... ("Omon ovchining o'limi"). [2, 13]

Yoz edi. Pishiqchilik ushbu gapda atov gapning kengaygan va sodda shakllari mavjud. Ushbu satrda atov gap yoz fasli, pishiqchilik vaqda ekanligini keltirib o'tadi. Omon ovchi shu ketishda katta bir burgutni otib, so'ng uni tomosha qilib, keyin uning xuddi besh yashar bolaning panjalaridek oq-sariq, biqqi barmoqli oyoqlarini kesib olib, uyga qaytib kelganda bari jihaz o'z o'rnida, faqat xotin bilan bola yo'qligi tasvirlangan.

Bahor. Men bog'imiz adog'idagi devorning u yog'da yastangan yalanglikda chiqaman. ("Chillak o'yini"). [2, 110]

Bahor atov gapning sodda turi kelgan ushbu satrda. Adibning ushbu hikoyasi paytni ifodalayapti. Onam ishda – ertalab jiyron otimizni minib ketgan. Singlim Ra'no dugonlari bilan qo'g'irchoq o'ynaydi. Men nima qilay? Uyda o'tiraymi? Darslarim tayyor. Kechasi bajarib qo'yanman. Tushgacha kunni o'tkazish kerak jumalari orqali hikoya hikoya davom etadi.

Tanish ko'cha. Yo'l yoqasida o'sha novcha daraxtlar! ("Baxtli bo'linglar"). [3, 167]

Tanish ko'cha ushbu satrda ham atov gapning kengaygan shakli qatnashgan. Bu satrda tabiat mazaralari, daraxtlar tasvirlangan. Qiziq shaharda yo'llarga qor tushgani qo'yishmaydi-ya? Yer supurgich mashinalar va allaqanday kichkina avtobuschalar uyoqdan-buyoqqa o'tib, asfaltni tozalab ketishyapti. Qor esa unga o'chakishganday.

Uning ham qo'lida....archa. Kichkina archa. Ha, bironing uyiga boryapti. ("Baxtli bo'linglar"). [3, 169]

Kichkina archa ushbu satrda atov gapning kengaygan turi mavjud. Ushbu satrda qish faslining go'zal bayrami "Yangi yil"da beztiladigan archa tasviri berilgan. Ko'chada hamma archa ko'targan. Shoshganini qarang! Vaqtida harakat qilish kerak edi. Hali buni bezatish kerak. Beparvo ekan.

Ertalab Zebo qishloqqa qaytdi. Tanish bekat. Avtobus. Tanish yo'l Dovon. Biyday cho'l. Qishloq. Uylari. Otasi. Onasi. Buvisi. ("Baxtli bo'linglar"). [3, 170]

Tanish bekat. Avtobus. Tanish yo'l Dovon. Biyday cho'l. Qishloq ushbu satrda atov gapning sodda va kengaygan shakllari bir necha o'rinlarda kelgan. Zeboning ko'z oldida tanish bekat, avtobus, tanish yo'l Dovon, biyday cho'l, qishloq manzaralari namoyon bo'ladi.



Tancha. Tashqarida qor gupillab yog'moqda. ("Baxtli bo'linglar"). [3, 170]

Tancha ushbu gapda atovning sodda shakli mavjud. Zeboning qishloqqa qaytishi qish fasliga to'g'ri keladi, tashqarida qorning gupillab yog'ayotganligi tasvirlangan.

Biyday dasht. So'qmoq... Bu so'qmoq menga ko'pdan tanish. ("Bahor"). [4, 1]

Biyday dasht. So'qmoq ushbu gapda atov gapning kengaygan va soda turlari mavjud. Shanba kuni tushdan keyin jo'nadim. Havo iliq. Bahor osmoni tiniq. Tollar kurtak chiqargan. Hovlimizdan chiqdim. Rayon ham orqada qoldi. Biyday dasht. So'qmoq...Bu so'qmoq menga ko'pdan tanish. Esimni taniganimdan buyon yuraman, misralari orqali tabiat tasviri yana bir bor chiroyli tasvirlangan.

Xulosa qilar ekanmiz, Shukur Xolmirzayev hikoyalarining asosiy mavzusi o'zbeklar haqida aniqroq qilib aytganda o'zbek millati, uning mentaliteti haqida. Hikoyalarda o'zbeklarning soddaligi, mehmondo'stligi, ochiqko'ngilligi, bag'rikengligi, saxovatpeshaligi kabi ezgu fazilatlar bilan birga ayrim salbiy jihatlari ham ochilib berilgan bundan tashqari adib hikoyalarida tabiat tasvirini ham kuzatishimiz mumkin, adib hikoyalarida atov gaplardan foydalanganligini ko'rib chiqdik. Yozuvchining qo'llagan har bir atov gapi asarda muhim ahamiyat kasb etgan, negaki atov gaplar orqali hikoyalardagi tasirchanlik, obrazlarning ichki kechinmalarini aniqlashimiz mumkin. Yana shuni aytish lozimki, yozuvchining kuchli va boy so'z mahoratiga egaligining yana bir bor guvohi bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2010. – 499-500-bet.
2. Шукур Холмирзаев. Сайланма 1-жилд хикоялар. Тошкент. 167, 169, 170-бет.
3. Шукур Холмирзаев. Сайланма 2-жилд хикоялар. Тошкент. 13, 43, 51, 110-бет.
4. Shukur Xolmirzayev. Bahor. Toshkent. 1-bet.